

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA O‘YIN VA SINFDAN TASHQARI ISHLAR SAMARASI

Ismatillayeva Latofat Anvar qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Maxsus pedagogika yo‘nalishi 2-kurs magistri

latofatasinur@gmail.com

Annotasiya: *Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalarda muloqot kompetensiyasini rivojlantirish muammolari ko‘rib chiqiladi. Muloqot kompetensiyasi bolalarning ijtimoiy integratsiyasi va akademik muvaffaqiyati uchun muhim bo‘lib, uning shakllanishida individual yondashuvlar va innovatsion metodlar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda alohida yordamga muhtoj bolalar uchun multimodal yondashuvlar, differensial metodlar va hamkorlikda ta’limning ahamiyati hamda maktabdan tashqari faoliyatni samarasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Inklyuziv ta’lim, alohida yordamga muhtoj bolalar, muloqot kompetensiyasi, differensial yondashuv, multimodal muloqot, maktabdan tashqari faoliyat*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются проблемы развития коммуникативной компетенции у детей, нуждающихся в особой помощи, в условиях инклюзивного образования. Коммуникативная компетенция имеет важное значение для социальной интеграции детей и их академического успеха, а индивидуальные подходы и инновационные методы играют ключевую роль в её формировании. В исследовании также анализируются важность мультимодальных подходов, дифференцированных методов и совместного обучения для детей с особыми потребностями, а также эффективность внеурочной деятельности.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, дети, нуждающиеся в особой помощи, коммуникативная компетенция, дифференцированный подход, мультимодальное общение, внеурочная деятельность.*

Annotation: *This article addresses the issues of developing communication competence in children with special needs in the context of inclusive education. Communication competence is crucial for children's social integration and academic success, with individual approaches and innovative methods playing a significant role in its development. The research analyzes the importance of multimodal approaches, differential methods, collaborative learning for children with special needs, as well as the effectiveness of extracurricular activities.*

Keywords: *Inclusive education, children with special needs, communication competence, differential approach, multimodal communication, extracurricular activities.*

Aloqa – bu insonlarning mavjudligi uchun zarur bo‘lgan eng muhim shart bo‘lib, uning yo‘qli sabab insonning nafaqat psixik faoliyatlari, jarayonlari va xususiyatlari, balki

shaxsning to‘liq shakllanishi ham mumkin emas. Aloqa – bu birgalikda faoliyat yuritish, yashash uchun o‘zaro hamkorlik qilish, shaxslararo munosabatlarda o‘zaro ta’sir qilish vositasidir.

Inklyuziv ta’lim alohida yordamga muhtoj bolalarning umumiy ta’lim jarayoniga qo‘shilishi va ularning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Ushbu jarayonda muloqot kompetensiyasi bolalarning jamiyat bilan o‘zaro aloqasi va ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi. Alohida yordamga muhtoj bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish maxsus metodlar va vositalar orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda inklyuziv ta’lim tizimi alohida yordamga muhtoj bolalarni ta’lim jarayoniga jalb qilish orqali ularning ijtimoiy moslashuvini ta’minlashni maqsad qiladi.

Taniqli pedagog va defektologiya sohasida ulkan ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar L.S. Vygotskiy, D.B. El'konin, V.V. Davydov, boshlang‘ich maktab yoshini ijtimoiylashuv va muloqot ko‘nikmalarni rivojlantirishning muhim bosqichi sifatida belgilab, bolalarning kelajakdagi faoliyati, samaradorligi va farovonligi uchun kalit bo‘lib xizmat qiladi deb hisoblanganlar.

Inklyuziv ta’limda alohida yordamga muhtoj bolalarning umumiy ta’lim jarayoniga qo‘shilishi va ularning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash uchun boshlang‘ich maktab yoshi ayniqsa muloqot ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun qulay davr hisoblanadi, chunki bu yoshda bolalar til me’yorlariga, nutq tajribasiga, muloqotga juda kirishuvchan hamda qiziquvchan bo‘ladilar. Shunday qilib, o‘quvchilarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirish boshlang‘ich ta’lim jarayonining dolzarb vazifasidir. Bolalarning yosh bosqichlari xususiyatlarini inobatga olsak boshlang‘ich maktabni tugatgan o‘quvchilarda o‘zaro muloqotda bo‘lish, suhbatdoshini tinglash va o‘z fikr-mulohazalarini asoslash kabi majburiy ko‘nikmalarni shakllantirish vazifalari qo‘yilgan.

Muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvidir.

Muloqot kompetensiyasi – bu bolaning turli ijtimoiy vaziyatlarda verbal va nonverbal nutq vositalari yordamida samarali muloqot qilish qobiliyatidir. Ushbu jarayonda muloqot kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi va uning mazmuni quyidagilar:

– o‘quvchilar turli vaziyatlarda til vositasi ya’ni muloqot yordamida vazifalarni hal qilish qobiliyati;

– verbal va nonverbal vositalardan foydalanish borasidagi bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar majmui, turli muloqot vaziyatlarida haqiqatni to‘g‘ri anglash va aks ettirish (analiz-sintez); .

I.N. Zotovanning tadqiqotiga ko‘ra, muloqot kompetensiyaning kompleks tarkibiga quyidagi komponentlarni kiritgan:

- Hissiy-emotsional komponent (boshqa odamning his-tuyg‘ularini, fikrlarini va tajribalarini tushunish va ularga hamdardlik bildirish va rahm-shafqat qobiliyati, hamkorining harakatlariga e’tibor);

- Kognitiv komponent (boshqa odamni bilish bilan bog‘liq, uning xulq-atvorini oldindan taxmin qilish, odamlar o‘rtasidagi turli muammolarni samarali hal qilish qobiliyati);
- Xulq-atvor komponenti (boladagi hamkorlik, birgalikda faoliyat yuritishga intilish, tashabbuskorlik, muloqotdagi to‘g‘rilik, tashkilotchilik qobiliyati va boshqalarni aks ettiradi) .

Yuqoridagi komponentlar bolalarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini, ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatini va mustaqilligini ta’minlashda muhimdir.

Buryat davlat universiteti bolalik psixologiyasi kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi Klimentyeva Natalya Nikolayevnaning boshlang‘ich ta’lim jarayonida ta’lim olayotgan bolalar orasida o‘tkazgan tadqiqodiga asoslanib, aksariyat bolalarning muloqot kompetensiyalarini olgan natijalariga tayangan holda o‘rta darajasini ko‘rsatgan ya’ni har doim bolalar bir-biriga o‘zaro yordam ko‘rsatish va kelishib olishda qiyinchiliklarga duch keladilar, ular muloqot qilish qoidalari va ulardan foydalana olishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuning uchun boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida muloqot kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha maqsadli ish zarur. Muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun alohida yordamga muhtoj bolalarga individual va differensial yondashuv talab etiladi. Masalan, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun audiovizual vositalar, ko‘rishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun esa taktil materiallardan foydalanish zarur. Shuningdek, multimodal texnologiyalar (masalan, maxsus dasturlar va muloqot qurilmalari) yordamida bolalarning muloqot imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Shuningdek, o‘yin texnologiyalari muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi. Bolalar o‘yin orqali ijtimoiy vaziyatlarni o‘rganadilar, til ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar va o‘zaro hamkorlikni rivojlantiradilar. Hamkorlikda ta’lim esa sog‘lom bolalar bilan birgalikda o‘qitish orqali ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi. Interaktiv o‘yinlar va guruh faoliyatlari orqali bolalarning ijtimoiy va muloqot ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumiy sinflarga jalb etish orqali ularning ijtimoiy aloqalari kengayadi. Bunda o‘qituvchi va sog‘lom o‘quvchilar bilan hamkorlikda ishlash bolalar uchun motivatsiya manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ularning birgalikdagi harakatlari orqali bolalar muloqot qobiliyatlarini tezroq rivojlantirishi mumkin.

Bundan tashqari samarali yordam beradigan vosita sifatida maktabdan tashqari faoliyatni keltirishimiz mumkin.

Maktabdan tashqari faoliyat — bu maktab o‘quvchilari tomonidan amalga oshiriladigan barcha faoliyat turlarini ifodalaydigan tushuncha (ta’lim faoliyatidan tashqari), bunda ularning tarbiyasi va ijtimoiylashuvi muammolarini hal qilish imkoniyati mavjud. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarini ijtimoiy faoliyatlarga kirishishlarini albatta do‘stona muhitga chiqish sifatida shakllantirilishi kerak.

O‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalariga asoslanib, muloqot kompetensiyaning rivojlantirishda korreksion-rivojlantiruvchi ishni bajarish davomida hal qilinadigan asosiy vazifalar:

- Bolalar uchun muloqot qilish qoidalari haqida tushunchalarni kengaytirish va mustahkamlash;
- Bir-biriga mehribon munosabatni shakllantirish;
- Tinglash qobiliyatini rivojlantirish, muloqot qilishga undash, muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, suhbat davomida chidamlilikni oshirish;
- Bolalar va tengdoshlari o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish;
- Yaqinlariga g‘amxo‘rlik qilish, turli yoshdagi insonlar bilan to‘g‘ri munosabatlarni o‘rnatishni o‘rg‘atish;
- Hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Shunday qilib, aynan boshlang‘ich maktab yoshi bolalar muloqotga qiziqishning senzitiv davrlaridan bo‘lganligi tufayli, muloqot ko‘nikmalarni egallash uchun juda qulaydir. Shu sababli, o‘quvchining muloqot kompetensiyasini rivojlantirish — boshlang‘ich maktab ta’lim jarayonining dolzarb vazifasidir.

Inklyuziv ta’limda alohida yordamga muhtoj bolalarda muloqot kompetensiyasini shakllantirish ularning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlash va hayot sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Differensial yondashuv, multimodal texnologiyalar va hamkorlikda ta’lim metodlari bu jarayonda samarali natijalar beradi. Shuning uchun, inklyuziv ta’lim tizimida pedagoglar va ota-onalarning hamkorligi orqali bolalarda muloqot kompetensiyasini shakllantirishga alohida yondashuv va e’tibor qaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андриенко Е. В. развитие коммуникативной компетенции учащихся в профильном обучении // Педагогическая наука и образование. — 2010. — №11. — С. 30– 35.
2. Зотова Н. И. Формирование коммуникативных способностей младших школьников в учебно-воспитательной деятельности // Начальная плюс До и после. — 2011. — № 4. — С. 78–83.
3. Booth, T., & Ainscow, M. (2002). The Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education.
4. Florian, L. (2014). The Inclusive Classroom: Differentiating with Impact. London: Routledge.
5. Mitchel, D. (2015). Inclusive Education: Strategies for Teaching Students with Special Needs. London: Routledge.
6. Сытенко Т. В. Роль коммуникативной компетенции для формирования личности младшего школьника средствами урока и внеурочной деятельности. 2006 г. Электронный ресурс: <http://5fan.ru/wievjob.php?id=38601>
7. Овсянникова Е. А. Развитие коммуникативных умений у младших школьников в тренинговой группе // Начальная школа плюс До и после. 2004. № 7. С. 42-44.

8. Д. В. Чимитова, Н. Н. Климентьева. Особенности развития коммуникативной компетенции младших школьников в условиях школы-интерната.